

**HUSAYIN BOYQORO.**

*Namangan davlat universiteti.*

*Ijtimoiy fanlar fakulteti.*

*Tarix yo`nalishi 2- bosqich talbasi.*

*Muhammaiyyev Bilol Ismoil o`g`li.*

*E-mail: bilolmuhammadiyev5@gmail.com*

*Tel: +9895 7707796.*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada temuriy hukumdor Husain Boyqaroning hukumdorlik vaqtida temuriylar davlatini ijtimoiy-siyosiy tarixi madaniy hayoti, mamlakatni birlashtirish yo`lidagi say- harakatlari. Farzandi bilan mojarolari, Hukumronligini so`ngi paytlari va o`limi yoritiladi.

**Kalit so`zlar:** Husayn Bayqoroning tu`g`ulishi. Abulqosm Bobur. Abu Said. Alisher Navoiy. Xadicha begin. Bayqoroning o`limi. Shayboniyxon.

Temuriylarning so`ngi yirik hukumdorlaridan Husayin Boyqoro hukumdorligi davrida asosan Xuroson, shimoliy-sharqiy Eron va Xorazm hududlari qo`l ostida birlashtirib mamlakat hayotida katta islohotlar amlga oshirdi. Turli o`quv muasasalari madrasa va masjidlar qurdi. Uning do`sti va vaziri Alisher Navoiy bilan birga yurt ravnaqi uchun xizmat qilganlar. To`g`ri hukumronligini so`ngida bir nechta ko`ngilsiz ishlar bo`lgan bo`lsada ammo mamlakatimiz tarixidagi buyuk hukumdorlardan biri bo`lib qolaveradi.

Xuroson taxtida hukmronlik qilgan so`nggi temuriylardan biri Husayin Boyqarodir (1469-1506). U 1438-yil iyul oyida Hirotning shimoliy-sharqidagi Davlatxona saroyida tavallud topadi. Sulton Husayn Boyqaro ham ota, ham ona tomonidan temuriylarga borib taqaladi. Otasi G`iyosiddin Mansur Mirzo temuriyzodalardan bo`lsada, u biron-bir yerda hukmronlik qilmagan, to umrining oxirigacha Hirotda oddiy odamlardek o`rtamiyona hayot kechirgan. Husayin Boyqaro otadan erta yetim qoladi. 1445-yilda otasi vafot etganda u yetti yoshli bola edi. Yosh Husayin 14 yoshga qadar madrasa ta`limini oladi. So`ngra onasi Feruza begin bilan maslahatlashib temuriyzodalardan bo`lgan Hirot hukmdori Abulqosim Bobur Mirzo xizmatiga kiradi. 1454-yilning kech kuzida Abulqosim Bobur Samarqand hukmdori Sulton Abu Sayyid Mirzoga qarshi muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. Ana shu yurishda 16 yoshli Husayin Boyqaro ham bor edi. Abu Sayyid va Abulqosim Mirzolar o`rtasida

sulh tuziladi. Abulqosim Bobur Hirotga qaytadi. Ammo Sulton Husayin Samarqandda qoladi. Sulton Abu Sayyid saroyida Umarshayx Mirzo avlodiga mansub shahzodalar Sulton Husayin Mirzoga qadar ham bor edi. Husayn Boyqaroning amakivachchasi bo‘lgan Sulton Vays Mirzo (Muhammad Mirzoning o‘g‘li) saroyida Sulton Abu Sayyidga qarshi isyon uyushtiradi. Isyonchi Sulton Vaysdan xavfsiragan Abu Sayyid Umar Shayx Mirzo avlodiga mansub bo‘lgan 13 nafar shahzodani, shu jumladan, Husayn Boyqaroni ham qamoqqa oladi. Bu voqeadan dahshatga tushgan Feruza begin Abulqosim Bobur huzuriga maslahat so‘rab boradi va uning ijozati bilan Samarqandga yo‘l oladi. Sulton Abu Sayyid holavachchasini iltifot ila kutib oladi va Sulton Husaynni hibsdan ozod qiladi. Onasi bilan Hirotga qaytib kelgan Husayn Boyqaro yana Abulqosim Bobur saroyida faoliyat ko‘rsata boshlaydi.[1- B.409] ma’lumotlarga qaraganda Alisher Navoiy ham bu davrda Abulqosim Bobur xizmatida bo‘lgan.

1456-yil oktabr oyining boshida Abulqosim Bobur Hirotdan chiqib 14-oktabrda Mashhad shahriga keladi. Bu safarda Husayn Boyqaro va Alisher Navoiylar ham bo‘lishgan va shu yerda birga o‘qishgan. Hirot hukmdori qishni Mashhadda o‘tkazadi. 1457-yilning 22-martida saroyda o‘tkazilayotgan bazm asnosida Abulqosim Bobur Mirzo jigar xastaligiga qaramay, me’yoridan ortiq sharob tanovul qilib, olamdan ko‘z yumadi.[2.-B106]

Abu Sayyid Mirzo bunday qulay vaziyatdan foydalanib 1457-yilda Hirotni egallaydi va Temuriylar davlatining har ikki qismini yana birlashtiradi. Bu davrda Alisher Navoiy Mashhadda qolib o‘qishni davom ettiradi. Mansab, davlat va shonshuhrat orzusida yurgan Husayn Boyqaro saroyni tark etadi, Marv, Jom va Moxan viloyatlarining hukmdori Sanjar Mirzo Marviy huzuriga boradi. Chunki Sanjar Mirzo Marviy 1455-yildan beri Abulqosim Bobur qo‘l ostida bo‘lgan. Ammo Abulqosim Bobuming vafotini eshitgan Sanjar Mirzo marhumning o‘g‘li va shahzoda Shoh Mahmudga itoat etmasdan hokimiyatni o‘zi mustaqil boshqara boshlaydi. Kuchquvvatga to‘lgan 19 yoshli Sulton Husayn Boyqaroni Sanjar Mirzo istiqbolda ezgu niyatlar bilan juda samimiyligi va iliq kutib oladi, hatto unga o‘zining 15 yoshli qizi Beka Sulton beginni nikohlab beradi. Husayn Boyqaro ham o‘z navbatida o‘zining mardligi, jasorati va qat’iyatliligi tufayli qaynotasi Sanjar Mirzoning ishonchi va e’tiborini qozonadi. Lekin shu o‘rtada qiziq bir voqea sodir bo‘ladi. 1457-yilda Abulqosim Bobuming 11 yoshli o‘g‘li Shoh Mahmud Alouddavlanning o‘g‘li Ibrohim Mirzo bilan jang qilib yengiladi va Mashhadga qaytadi. Bu xabami eshitgan Husayn Boyqaroning qaynotasi Sanjar Mirzo Mashhadni o‘z tasarrufiga kiritish uchun yo‘lga otlanadi va o‘rniga kuyovini Marv hokimligiga qoldiradi. Ammo Sanjar Mirzoning vaziri Hasan

Arlot Husayn Boyqaroni kelgindi deb yomon ko‘rardi. Shu boisdan u xalq orasiga «Boyqaro qaynotasini ag‘darib, Marvda o‘z sultanatini barpo etmoqchi», degan gaplarni tarqatadi va uni asirga olish uchun payt poylaydi. Fitnadan xabar topgan Husayn Boyqaro Hasan Arlotni ushlatib zindon qiladi. Biroq voqeа bu bilan tinchimaydi. Bir tomondan, yoshlik, ikkinchi tomondan, erk-havas ustunlik qilib, Husayn Boyqaro o‘z navkarlari bilan ovga otlanadi. Saroydagi niyati buzuq kuchlar bu qulay vaziyatdan foydalanmoqchi boiadilar. Sanjar Mirzoning mulozimlari Muhammadbek Sheroyziy, Shayx Zunnun Iroqiy va umarolardan El O‘g‘li o‘zaro til biriktirib Husayn, Boyqarodan o‘ch olmoqchi bo‘ladilar. Ular Husayn Boyqaro o‘rdugohdan uzoqlashishi bilan Boyqaro devonida xizmat qilib turgan uning yaqin kishilaridan bo‘lmish Dulboy Shayx Bahodir, Sher Ali va boshqalami qo‘lga olib qatl etadilar. Shahardan xiyla bilan zo‘rg‘a qochib chiqqan Sher Alining birodari Husayn Boyqaroga saroydagi mash’um fitna to‘g‘risida xabar beradi. Boyqaro Mirzo o‘zining 60 nafar navkari bilan shoshilinch suratda Marvga qaytadi. Ikki o‘rtada qattiq jang bo‘lib, unda Husayn Boyqaro g‘olib chiqadi. Sulton Husayn 1458-yilning bahor faslida o‘zining uch yuz kishilik suvoriylari bilan Tajan tomon yuradi. Yo‘lda u Jurjonda Jahonshoh turkman tazyiqidan qochib kelayotgan Amir Bobo Hasan qo‘shinlarini tor-mor qiladi. Bu uning jang maydonidagi birinchi g‘alabasi edi. Shundan so‘ng Husayn Boyqaro Niso viloyatini va 1460-yilda Astrobod shahrini egallab, Abu Sayyid Mirzoning g‘azabini qo‘zg‘aydi. Ammo Abu Sayyid Mirzo o‘zining xavfli raqibi Jahonshoh turkman bilan orani bir yoqlik qilib olgunga qadar Sulton Husayn Boyqaro bilan vaqtincha do‘stona munosabatda bo‘lib turadi. 1459-yilga kelib Sulton Abu Sayyid Mirzo o‘zining hamma raqiblarini bирyoqliк qiladi. Jahonshoh turkman bilan sulh tuzadi. Bungacha u 1458-yilda Saraxs qo‘rg‘oni yaqinidagi jangda Alouddavla, uning o‘g‘li Ibrohim Mirzo va Sanjar Mirzoning birlashgan qo‘shinlarini tor-mor qilgan edi. Husayn Boyqaroning qaynog‘asi Sanjar Mirzo asir olinib, qatl etiladi. Endi Abu Sayyid o‘zining butun nigohini Husayn Boyqaroga qarata olardi. Abu Sayyid Mirzo keyingi dvrlarda Boyqoroga qarshi ko`plab yurishlar qildi. Husayin Boyqaro Xorazm tomonlarga ketib hatto dashti qipchoq xoni Abulkayrxondan yordam so`radi. Bu yordam Abulkayrxondi o`limi sabab amalga oshmadni. Abu Sayyid Mirzo 1469-yil Iroqda oqquyinli turkmanlar hukumdori Uzun Husayn ga qarshi jangda Mo`g`ilcho`lida vafo etdi. Bu Husain Boyqoro uchun taxtni egalash uchun yaxshi imkonyat tug`diri. 1469-yil 24-martda Husayn Boyqaro tantanali suratda Hirotgа kirib keladi. Husayn Boyqaro 38 yil hukmronlik qiladi. Ana shu davrda ko‘z o‘ngimizda ikki xil Husayn Boyqaro gavdalanadi. Birinchi Husayn Boyqaro jasoratli, mard, odil

va tadbirkor saltanat sohibidir. Uning rahbarligida mamlakat hududi ichki va tashqi dushmanlardan tozalanadi, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan qudratli davlat barpo etiladi. Ikkinci Husayn Boyqaro saltanatni boshqarish va idora qilishda boqibeg‘am, maishatparast, kayf-u safoga mukkasidan ketgan hukmdordir.[1-B.410].

### 1. Husayn Boyqaroan 14 o`g`il 11 qiz qolgan. [4]

Husayn Boyqaro hukumronligini so`ngi yillarida ichkilika juda ko`p berilib ketgan edi. Uning fojiasi va qora kunlari Xadichabegin ismli go‘zal ayolni kanizak sifatida haramiga olgan 1470-yildan boshlandi. O‘z ishvayu nozlari bilan sultonni o‘ziga rom qilgan Xadichabegin oz vaqt ichida Husayn Boyqaroning xotini, malika darajasiga yetishdi. Shuningdek, u “maxdi ulyo” unvoni bilan ichkilikbozlikka tobora berilayotgan sultonning siyosat tizginini qo‘liga olib, davlatning ichki va tashqi siyosatida muhim rol o‘ynay boshlaydi. 1497 -yili Sulton Husayn mirzo va o`g`li Baidiuzzamon o`rtasida nifoq paydo bo`li. Bunga sabab Boyqoro tomonidan Balxni Badiuzzamonga va Astrabotni inisi Muzaffar mirzoga bergenligi Badiuzamonga yoqmadidi. Chunki Mo`min mirzoni xatna to`yida Astrabot unga bag`ishlangan deb turib oldi Badiuzamon. O`rtadagi kurashda Badiuzzamon yengilib Qundiz tomon ketadi.[3.-B53]

Husayn Boyqaroning qora kunlari do‘sti Mir Alisher Navoiyning 1501-yildagi o‘limidan keyin yana zabitga oldi. Do‘stini hayotda ham hurmatu e’zoz qilgan sulton ulug‘ shoirning dafn marosimiga boshchilik qildi. Marhum do‘stining qarindoshlariga g‘oyat mehr ko‘rgazib, Navoiy vafotining yigirmanchi kunida Sari Xiyobon maydonida katta ma’raka uyushtirdi.

Ana shundan keyin Husayn Boyqaro yanada og‘ir kunlarni boshidan kechirdi. Xurosonda ichki nizolar va parokandalik avj oldi. Bu vaqtga kelib hayoti va saltanatining asl tayanchi bo‘lgan Navoiydek do‘stidan ayrılgan, keksalik onlarini sharob bilan qorishtirib sarxush o‘tkazayotgan Boyqaro saltanati tanazzulga uchrayotgandi.

Negaki, Movarounnahrni fath qilgan Shayboniyxon Jayhunni kechib, Balxni qo‘lga olgan, endi Hirotdek shahri azimga yaqinlashib kelmoqda edi.

Ayniqsa, 1506-yilda jangu -jadallarda Shayboniyning qo‘li baland kelib, Boyqaroni mag‘lubiyatga uchratishi aniq bo‘lib qolgan edi. Shu yili zulhijja oyidagi, Bobo Illohiy mavzesidagi jangda Shayboniyxon qo‘smini Hirot tomon shiddat bilan intiladi, Bu vaqtda sharobxo‘rlikni odat qilib olganidan Boyqaroning yonoqlaridagi mayda qizil tomirlar taram-taram bo‘lib bo‘rtib turar, yelkasi bukchayibroq qolgan, buyragi va jigari ishdan chiqqan, kasalmand holga kelib qolgandi.

Natijada, bir tomondan xastaligi, ikkinchi tomondan mag'lubiyat alamidan Boyqaro hushidan ketib, vujudida ham hayot-mamot jangi kechardi. Oqibatda fojia yuz berdi.

Dushman tobora saroyga yaqinlashayotganida, amaldorlari uning chuqur uyquga ketganini bilmay, o'ldiga chiqarib, jang arafasida buni dushmandan hamda o'z qo'shinidan yashirish maqsadida uni shoshilinch ravishda dafn etdilar. Bu sulton Husayn Boyqaroning eng qaro kuni edi. Shundy malumotlar mavjudki uning o`limi haqida, Qabrnı ochgan navkarlar hayratdan lol bo'lib qolishdi. Ular Xuroson hukmdorini Hirotdagi o'zi qurdirgan madrasaga shohona dafn qilish uchun muvaqqat qabrnı ochishgandi. Ne ajabki, murdaning tirnoqlari sinib ketgan, kafan yarim yechilgan, hamma yoqda qon dog'lari qotib qolgandi. Demak, podshohni hushidan ketganda o'ldi, deya tiriklayin ko'mgandilar. Aftidan u hushiga kelib o'zini dimiqqan lahadda kafanlangan holda ko'rgach, bor kuchi bilan qabrdan chiqishga intilgan. Ammo Xuroson hukmdori Husayn Boyqaroga qabirni ochib chiqish nasib qilmagan.

Xulosa qilib aytish mumkinki Husayn Bayqoroning hukumronlik yillari temuriylar davlati tarixida ham yaxshi, ham yomon xotiralar bilan eslansada shuni unutmaslik keraki oyning ham o'n beshi yoruq yana o'n beshi qorong'i bo`lgay. Uning qilgan xatolarini qilgan yaxshi amalari yopib yuboradi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar.**

1. R.Shamsutdinov, Sh. Karimov, Vatan tarixi 1 -Toshkent: Sharq- nashiryot matbaa aksiyadorlik kompanyasi bosh tahriryati, 2010.512b.
2. Т. Файзиев. Темурийлар шажараси – Тошкент: “Ёзувчи” наширёти – хазина. 1995. 184 b.
3. 3.М. Бобур. Бобурнома- Тошкент: “О`qutuvchi” наширёт-матбаа ижодий уйи.2008.228 b.
4. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Husayn\\_Bayqaro](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Husayn_Bayqaro).